

## IJTIMOY-PSIXOLOGIK TRENING-KONFLIKTLI XULQ-ATVORNI KORREKSIYALASH METODI SIFATIDA



### Abstract:

Ushbu maqolada ijtimoiy psixologik trening va uning konfliktli xulq-atvorni korreksiyalash metodi sifatidagi xususiyatlari yoritilgan. Konfliktlar yechimida aynan mana shunday yo'l ishlab chiqilgan, ya'ni ziddiyatli vaziyatdagi har ikki tomon ham o'zini g'olib, - deb anglashi mumkinligi konfliktlar yechimining o'ziga xos yutuqlaridan hisoblanadi. Konfliktli vaziyatlarda tomonlar qarama-qarshiligi natijasida har ikki tomon yutib chiqishi, bir tomon yutib chiqishi yoki har ikki tomon ham yutqazishi mumkin. Demak, ziddiyatning qanday yechim topganligiga qarab, tomonlar vaziyatlari turlicha bo'lishi mumkin. Ular bu vaziyatda xulq - atvorlarini hisobga olgan holda ish olib borishi kerak. Ushbu maqolada ushbu muammoni ijtimoiy psixologik treninglar orqali to'g'irlash mumkinligi haqida so'z yuritiladi.

### Key words:

konflikt, ziddiyat, pedagogik nizo, adovat, xulq-atvor, munosabat, muloqot, anglashilmovchilik.

### Author of the article:

**Almardonova Feruza  
Bekmurodovna**

### Workspace (Education subject)

**Denov Tadbirkorlik va  
Pedagogika instituti**

Konflikt har bir inson hayotining ajralmas tarkibi hisoblanadi. Inson ilk bolalik davridanoq turli nizolar va ziddiyatlar bilan o'zi xohlamagan tarzda to'qnash keladi. Konflikt vaziyatlarning kelib chiqishida biz bilishimiz zarur bo'lgan narsa shuki, konfliktlarning kelib chiqishida "konfliktogen"lar juda muhim rol o'ynaydi. Ana o'sha konfliktogenlar bilan qanday muomala qilishni ijtimoiy psixologik treninglar orqali o'rganish mumkin. Bunga konflikt signallari konfliktning tola namoyon bolishidan oldin tomonlar ortasidagi odatdagi to'g'ri munosabatlar o'rtasida kelishmovchilik, inqiroz, o'zaro tushunmaslik, g'ayirlik, ayirmakashlik vujudga kelayotganligini namoyon etadi. Konflikt signallariga be'tiborlik uning kelgusida rivojlanib ketishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, konflikt signallarini bilish va ularga e'tiborli munosabat talab qilinadi. Konflikt signallariga inqiroz, tomonlar orasidagi tanglik, tushunmovchilik, hasadgo'ylik, intsidentlar, diskomfort kiradi va ular haqida ma'lumot berish va tushunib yetish orqali erishish mumkin.

### ASOSIY QISM.

Treningni asosiy vazifalari:

1. Shaxsning ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish.

Muloqot faoliyatida namoyon bo'ladigan yaqqol bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni hosil qilish.

Samarali muloqatda namoyon bo'ladigan zarur sifatlar, ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish, noadekvatlarni korreksiyalash.

O'zini - o'zi to'laroq anglash, bilim hamda o'zgalarga nisbatan to'g'ri munosabatlarni shakllantirish qobiliyatini o'stirish.

Umuman shaxsning ijtimoiy munosabatlarini faoliyatga, undagi pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarga nisbatan moslashishni ta'minlash va muvofiqlashtirish kabi

.Ayniqsa, bugungi kunda oilaviy shaxslararo munosabatlarda, ma'lum bir faoliyat turlari jarayonida kishilar o'rtasida hissiy - emotsional zo'riqish holatlarini o'sib borayotganligini guvohi bo'lamiz. Bu muammolarni bartaraf etishda psixologik treningning imkoniyatlarini alohida ta'kidlashimiz maqsadga muvofiqdir. Stress va salbiy emotsiyalarni boshqarish bo'yicha treninglarni tashkil qilish va o'tkazish bugungi kunning talablaridan hisoblanadi va quyidagi amaliy vazifalarni ham qamrab oladi:

- mazkur treninglarni dasturlar asosida yuqori saviyada o'tkazish shartsharoitlarini yaratish; o'tkaziladigan treninglarni samaradorligini oshirish uchun mutaxassislarni bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; negativ emotsiya va

hissiyotlarni konstruktiv namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirish usullarini takomillashtirish; shaxsni barkamollashtiruvchi treninglarga oid manbalarni zamonaviy takomillashtirilgan holda qayta ishlab chiqish va yangilarini milliy qadriyatlarga asoslangan holda yaratish kabi. Ijtimoiy psixologik treningni maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, trening mashg'uloti uchun qo'yiladigan tamoyillar quydagilardan iboratdir: o'slangan holda yaratish kabi.

Bir guruh konfliktolog mutaxassislarining fikricha, «Konflikt dinamikasi o'zaro munosabatlar va vaziyat xususiyatlarini yanada aniq tushunishda, faoliyatni ko'p darajada samarali rejalashtirish va harakatlanishda yordam qiladi. Bunday tushunishga 2.yo'l bilan erishiladi:

1) turli nuqtai nazarlar asosida bu konfliktlarning batafsil tahlilini amalga oshirish;

2) bu konfliktlarga aloqador alohida masalalar va muammolarni tadqiq qilish. Konflikt etarli darajada ijobiy yo'nalishda rivojlanishi va mavjud ziddiyatni to'la yoki hech bo'lmaganda vaqtinchalik hal qilish bilan tugashi mumkin. Biroq, ko'pincha unda boshqa xususiyat ham ustun kelishi mumkin: kurash avj oladi va keskinlashadi, konflikt o'sib boradi. Kurash dinamikasining bunday holati odatda konflikt eskalatsiyasi deyiladi. Konflikt eskalatsiyasi. Konflikt eskalatsiyasining tashqi namoyon bo'lish xususiyati - bu, eng avvalo, kurashning jadallashuvi hisoblanadi. Konflikt spiralni burash metodi bo'yicha rivojlanadi: bir tarafning harakati ikkinchi tarafning qarshi harakati bilan birga kechadi va bu keyingi harakat o'z oqibatlarining ko'lamiga ko'ra konflikt boshlanishi nuqtasidagiga aynan bo'lmaydi. Konflikt tabiatini va uning o'xshash voqeliklardan farqini tushunish uchun uning chegaralarini, ya'ni uning makon va vaqtdagi tashqi doirasini aniqlash muhim. Konflikt chegaralarini aniqlashda uch xil nuqtai nazarga asoslanish mumkin: makon - fazoviy chegara, vaqt chegarasi, ichki tizim chegarasi. Konfliktning makon (maydon) chegarasi konflikt yuz beradigan joy, hudud bilan belgilanadi. Bu hudud turlicha bo'lishi mumkin, masalan, turar-joy maydonidan boshlanib, butun er shari bilan tugashi mumkin, ya'ni oshxonadagi janjal yoki jahon urushi. Konfliktning makondagi chegaralarini aniq belgilash asosan xalqaro munosabatlarda muhim bo'lib, konflikt ishtirokchilarining muammolari bilan bog'liq.

XULOSALAR.

Metodologiya demokratik jamiyat uchun eng maqbul bo'lgan hamkorlik strategiyasini, konfliktlarni kelishish orqali hal etish, konsensusga erishish yo'llarini nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, pedagogik konfliktologiyaning muhim metodologik tamoyili - konfliktli vaziyatlarni hal qilishda kuch ishlatishni inkor etish ekanligini ta'kidlash o'ta muhimdir. Insoniyatning tarixiy o'tmishi zo'rlikning oqibatida behuda ekanligini tushunishga, maqbul va muqobil qarorlarni izlab topishga undaydi. Asosiy yondoshuvlar. Fan metodologiyasi. Ilmiy metodologiyaga falsafiy dunyoqarash bilan belgilanuvchi tadqiqotning muayyan bosh tamoyillari, mantiqiy usullari va maxsus metodlarini qo'llash sifatida qarash mumkin. Pedagogik konfliktologiyaning metodologik asosi etarli darajada murakkabdir. U umumlashganlik darajasi va bilish vazifalariga qarab turlicha usullarni o'z ichiga oladi, ya'ni: - barcha aniq fanlarda va ilmiy bilishning turli bosqichlarida qo'llaniladigan umumiy falsafiy metodlar; - muayyan huquqiy hodisalar va jarayonlarni bilishda foydalaniladigan maxsus yoki xususiy metodlar: statistik, aniq-sotsiologik, qiyosiy-huquqiy, psixologik, matematik metodlar.

Foydalanilgan adabiytlar

1. Dmitriyev A.V. Konfl iktologiya: ucheb. posobiye. - M.: Gardarika, 2003. -320 s.

2. Isaev I.F. O'qituvchining kasbiy va pedagogik madaniyati: Darslik. Talabalar uchun nafaqa. yuqoridarslik. muassasalari. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2002. - 208s.

3. Abdullayeva Sh.X. Pedagogik faoliyat va professional kompetentlik: tushunchalar uyg'unligi//Pedagogik mahorat. 2018., № 3. - B.70-73. (19.00.00; № 4)
4. Yoshlar va konfliktlar: Konfliktlar yechimiga o'rganish/To'ychiyeva Gulxumor-Toshkent.2008 y
5. Ergeshova D.Q., Najimov M.K. Yuridik konfliktologiya: O'quv qo'llanma -T.: TDYul, 2007. - 97 b.